




# **"YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARGA IJTIMOIIY YORDAM KO'RSATISH TARTIBI TO'G'RISIDA"GI QAROR**

**VMQ-294-son, 05.05.2025-y.**





Qaror bilan tasdiqlangan Nizom yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibini belgilaydi



Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar kimlar?

Vasiy yoki homiy tayinlangan, tutingan (foster) oilaga berilgan, bolalar uylari, Respublika o'quv-tarbiya muassasalari hamda "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining muqobil parvarish xizmatida tarbiyalanayotgan yoki ushbu muassasalarni bitirgan, **yetim bola yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola** deb tan olingan bolalardir



Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga, jumladan ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarga ayrim ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi

Bu yordamlar "Inson" markazlari tomonidan bolaning yoshiga mos ravishda tuziladigan individual rivojlanish rejasi yoki individual integratsiya rejasi asosida, alohida murojaat qilish talab etilmasdan taqdim etiladi



## Individual rivojlanish rejasi nima?

Individual rivojlanish rejasi — 14 yoshgacha boʻlgan yetim bolalar yoki ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va yashash sharoitlari har tomonlama baholanib, ularga koʻrsatilishi kerak boʻlgan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar belgilab qoʻyiladigan rejadir

## Individual integratsiya rejasi nima?

Individual integratsiya rejasi — **14 yoshdan 23 yoshgacha boʻlgan yetim yoki ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan yoshlarning** jamiyatga moslashishi, jamiyat hayotiga qoʻshilishi, oʻzlari xohlagan kasbni erkin tanlashi uchun sharoit yaratish va ularning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida koʻrsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar belgilab qoʻyiladigan rejadir

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga quyidagi ijtimoiy yordamlar ko'rsatiladi:



- ✓ ish bilan ta'minlanishga yordam berish
- ✓ sifatli ta'lim olishga yordam berish
- ✓ ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlash
- ✓ uy-joy sharoitlarini yaxshilash
- ✓ sog'liqni saqlash

## Quyidagi hollarda ijtimoiy yordamlar to'xtatiladi:

- ✔ bola yoki uning qonuniy vakili yordamdan voz kechish haqida ariza bersa
- ✔ bola vafot etsa
- ✔ bola yordam olish uchun belgilangan yoshga yetsa
- ✔ bolaning oilasi Ijtimoiy reyestrda chiqarilsa
- ✔ ixtisoslashtirilgan tarbiya muassasasining ijtimoiy xodimlari yordamga ehtiyoj qolmaganligi haqida so'rov kiritrsa

